<i>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari	733
<i>Otahanova Manzura G'ofurovna</i>	
Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context.....	736
<i>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni .	749
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari	752
<i>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</i>	
Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar	757
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati	762
<i>Xudoyberdiyev Sh. M.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari.....	766
<i>Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</i>	
Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин)	770
<i>Багирова Паринисо Бобировна</i>	
Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar.....	775
<i>Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</i>	
Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili	780
<i>Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</i>	
Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari	784
<i>Tovoshova Ozoda Akmal qizi</i>	
Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish.....	789
<i>Kaxarova Ozoda Abdimominovna</i>	
Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri...	793
<i>M. B. Pulatova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili	796
<i>Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>	
Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari.....	801
<i>Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</i>	



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	

Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
<i>Sobirov Avazbek Anvarovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish	903
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
<i>Tolipova Shohista Qudrat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
<i>Turg'unova Gulzoda Botir qizi</i>	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
<i>Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna</i>	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
<i>Yoqubova Gulhayo Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
<i>Bilolov Inomjon O'ktamovich</i>	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
<i>Isayev Saidaliddinxon Islom o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
<i>Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abduolim qizi</i>	
Родительские установки и развитие личности	941
<i>Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	945
<i>Yusupova Umida</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari	950
<i>Kadirova Omaxon Sobirjonovna</i>	
Maktab ta'limi tizimida raqamli boshqaruv modelini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish	954
<i>Raxmatova Xurshida G'ofurovna, Tangirov Xurram Ergashevich</i>	
Особенности влияния психолога дошкольной образовательной организации на психическое развитие ребенка в игровой среде	961
<i>Камолдинова Диёра Жалолиддин қизи</i>	
Boshlang'ich maktabda sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish yo'llari	968
<i>Fayzidinova Maxsuda Akmalovna</i>	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirish: milliy va xalqaro pedagogik yondashuvlar	971
<i>N. R. Dushayeva</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilarning individual profili asosida moslashtirilgan didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish	975
<i>Oripova Dilnozaxon Abduvosi qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalari	980
<i>Rabbimova Munisxon Mustafoyevna</i>	
O'qitishda san'at vositalaridan foydalanish genezisi va zamonaviy tajribalari	983
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
Sun'iy intellekt muhitida ta'lim olish jarayonida talabalarning psixofiziologik holati va kognitiv yuklamasini baholash	989
<i>Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	993
<i>Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, R. Rayimova</i>	
The Influence of Digitalization on Written Communication.....	998
<i>Yusupova Sitora Ashuraliyevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'qish savodxonligi va ona tili darslariga zamonaviy yondashuvlar.....	1002
<i>G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna</i>	
O'quvchilarning ijodiy ish faoliyati malakalarni shakllantirishga mos masalalarni tanlash metodlari.....	1005
<i>Artiqov Maqsud Bahodirovich, Sherimmatova Mahfuza Rasul qizi, Sarsenbayeva Zilola Kamiljon qizi</i>	
Mashq va topshiriqlar tizimi – fonetik ta'lim samaradorligini oshirish tizimi.....	1011
<i>Ganiyeva Dildora Sagdullayevna</i>	
Psixologik treninglarning uslubiy muammolari: nazariy va amaliy tahlil.....	1015
<i>Gulchehra Utamurodova Narbayevna</i>	
O'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda mental xaritalardan foydalanish imkoniyatlari.....	1018
<i>Islamova Karima Turdiyevna</i>	
Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o'zaro xamkorlik.....	1023
<i>Karimova Gulchehra</i>	
Ta'lim boshqaruvida "yumshoq kuch" (soft skills): rahbar ayollarning psixologik va pedagogik mahorati...	1026
<i>Nomozova Roziya Omonovna</i>	
Ta'lim jarayonida psixologik muhitning ahamiyati.....	1029
<i>Qarshiboyeva Dildora Burliyevna</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanishning samaradorligi.....	1033
<i>Qo'chqorov Mirzavali</i>	
Tarbiyachi va bola o'rtasidagi muloqotning psixologik ahamiyati.....	1036
<i>Qodirova Malikaxon Kaxramonovna</i>	
Umumta'lim tizimida o'qituvchilarning sifat faoliyatini baholovchi tizim yaratish.....	1040
<i>Sharipova Umeda Tolibjonovna</i>	

O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRISHDA MENTAL XARITALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Islamova Karima Turdiyevna

Jamoat xavfsizlik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda mental xaritalar (fikir xaritalari) samarali pedagogik vosita sifatida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Unda mental xaritalarning mazmun-mohiyati, ularning o'quv jarayonidagi o'rni hamda o'quvchilarning erkin, assotsiativ va innovatsion fikrlashini shakllantirishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida mental xaritalardan samarali foydalanish yo'llari, ularni qo'llash metodikasi, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy va takomillashtirilgan usullar keng tahlil etiladi. Maqolada mental xaritalarning o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari hamda ijodiy faolligini oshirishdagi imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Mental xaritalar, vizual o'qish, kolaborativ ishlash, kreativlik, mustaqil fikr yaratish, Mind Maps, intellekt xaritalari, interfaol dars.

Abstract: This article analyzes the scientific, theoretical and practical aspects of mental maps (mind maps) as an effective pedagogical tool for developing students' creative thinking skills. It highlights the essence of mental maps, their role in the educational process, and their importance in forming students' free, associative, and innovative thinking. It also extensively analyzes the ways to effectively use mental maps in the educational process, the methodology for their application, and modern and improved methods that serve to increase the effectiveness of the lesson. The article substantiates the potential of mental maps to increase students' independent thinking, problem-solving skills, and creative activity.

Key words: Mental maps, visual reading, collaborative work, creativity, independent thinking, Mind Maps, mind maps, interactive lesson.

Аннотация: В данной статье анализируются научные, теоретические и практические аспекты ментальных карт (карт мышления) как эффективного педагогического инструмента для развития у учащихся навыков творческого мышления. Подчеркивается сущность ментальных карт, их роль в образовательном процессе и важность в формировании у учащихся свободного, ассоциативного и новаторского мышления. Также подробно рассматриваются способы эффективного использования ментальных карт в образовательном процессе, методология их применения, а также современные и усовершенствованные методы, способствующие повышению эффективности урока. В статье обосновывается потенциал ментальных карт для развития у учащихся самостоятельного мышления, навыков решения проблем и творческой активности.

Ключевые слова: ментальные карты, визуальное чтение, совместная работа, креативность, самостоятельное мышление, ментальные карты, интерактивный урок.

KIRISH

Ta'lim jarayoni o'zining murakkab axborot oqimi bilan takomillashib, unda ratsionallikni ajrata olish murakkab funksional vazifalar hisoblanadi. Ta'lim jarayonini faollashtirish, talab qilinayotgan bilimlarni uzoq vaqt xotirada saqlanishi uchun mental xaritalardan foydalanish ahamiyat kasb etadi. Aynan shu jarayonda intellekt xaritalari an'anaviy ta'lim usullariga yordamchi vositalardan biri hisoblanib, o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilimlarni grafik organeyzerlar (konspektlashtirish, tayanch iboralardan foydalanish, sxema va jadvallar yordamida) yordamida yaxlit tizim sifatida o'rganish va uni tushuntirishning eng qulay usullaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, mental xaritalar (fikir xaritalari) samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mental xarita tuzish g'oyasi XX asrning 60-yillarida Buyuk Britaniyada shakllangan. Intelekt xaritalarini (ing.mind maps) taniqli ingliz psixologi, xotira va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodikalar muallifi Toni Byuzen tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur metodika hozirgi kunda aqliy faoliyatning samaradorligini oshirishda eng universal va oddiy usul hisoblanib zamonaviy konspekt deb ham yuritilmoqda. Intelekt xaritalari ma'lumotlarini qayta ishlab chiqish, barcha ijodiy va intellektual imkoniyatlardan foydalanish, hamda barcha psixik- bilish jarayonlari (xotira, diqqat, sezgi, idrok, tasavvur tafakkur, nutq, xayolni rivojlantirishda qo'llaniladi^[1].

Toni Byuzen tadqiqot tahlillar natijasida ranglar, chiziqlar, kalit so'zlar va tasvirlar asosidagi mental xarita usulini taklif qilgan. Keyinchalik mental xarita usuli Yevropa, AQSH va Osiyo mamlakatlarida keng tarqaldi. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida Mind Maps (Toni Byuzen – esda olib qolish metodikasining muallifi) turli nomlarda qo'llanilmoqda. Xususan: mental xarita, intellekt xaritalari, fikr xaritalari, aql xaritalari, tafakkur xaritalari, idrok xaritasi, tushunchalar xaritalari, bilimlar xaritalari, xotira xaritalari, hissiyotlar xaritalari nomlari bilan turli fan sohalarini mazmuni mustaqil o'rganish, bilimlarni tizimlash va axborotni qayta ishlashda eng yaxshi vositachi hisoblanadi.

Mental xaritalar o'quv jarayonini samarali o'zlashtirish imkonini beradi, axborotni qabul qilish tezligini, loyiha ishlab chiqish sonini ko'paytirishda hamda o'quv dasturida, kundalik turmush tarzimizda ham keng qo'llanishi amaliy faoliyatda tasdig'ini topgan.

Toni Byuzen miya, ma'naviy aql, xotira, ijodkorlik va o'qish tezligiga oid kitoblar, jumladan, "Aql xaritasi kitobi: Fikrlashni tarmoqlash", "O'zingizni o'ylashga o'rgating", "Xotirangizni bog'lang", "Tanangiz va ruhingiz to'liq salohiyatidan foydalaning" va "Keyingi avlodning o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha qo'llanmasi" kitoblarining muallifidir. Buyzen "Miya jamg'armasi" va "Aql sporti olimpiadasi" asoschisi va prezidenti.^[2]

Yangi nazariya mental xaritalarni yangi g'oyalar asosida yanada rivojlantirdi.

Mental xaritalar yordamida o'quvchi va talabalar o'zlashtirgan bilimlarini tizimlab, mustahkamlaydi va fanning turli sohalarida qo'llashi mumkin, masalan, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, xulq atvorga xos axloqiy xususiyatlarni rejalashtirishda (kun, hafta, oy, yillarni), nutqni rivojlantirishda, taqdimot qilishda, ta'tilni rejalashtirishda, narsalarni yig'ish ta'riflarida, brainstorming – aqliy hujumni o'tkazish jarayonida, insho va taqdimotlar yozishda, darslarga tayyorgarlik algoritmi tuzishda, muammoli vaziyatlarni hal etishda, o'quvchilarni ijodiy faoliligini oshirishda, mustaqil fikr yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikr va tafakkurni xaritada jonlantirish metodi – keng ko'lamdagi axborot oqimini tizimli tahlil etib, bilimlarni tartiblash imkoniyatini beradi. Mental xaritalash - bu insonga katta axborot oqimi bilan kurashish, uni boshqarish va uni tuzishga imkon beruvchi usul. Mental xarita – voqea, hodisa, tasavvur va g'oyalarni tasvirlar orqali jonlantirish usulidir. Mental xaritalar uch asosiy afzalliklarga ega bo'lib, vaqtni tejash, eslab qolish qobiliyatni oshirish, ma'lumotlarni yaxshiroq tushunish va anglash.

Ushbu usulning muallifi Toni Byuzen intellekt xaritalari nazariyasida faqat uchta ko'rsatmani qo'llaydi:

1. **"Qabul qiling"** - avval intellekt xaritalarini yaratish uchun barcha qoidalar va ko'rsatmalarni diqqat bilan o'rganishingiz kerak;
2. **"Qo'llang"** - bu texnologiya yordamida matn va axborotlarni asosiy tushunchalar ostida birlashtirish hamda kamida 100 ta intellekt xaritalarini tuzib ko'rish;
3. **"Moslash"** - bu texnikani o'zingizda sinab ko'ring, mahoratingizni oshiring. Xaritalarni yaratish uchun faqat rangli qalamlar, markerlar ishlatiladi. Asosiy g'oya, muammo yoki so'z markazda joylashtiriladi. Markaziy fikrni ifodalash uchun chizmalar yoki rasmlardan foydalanish mumkin. Har bir asosiy g'oya o'z rangiga ega^[3].

Mental xarita – bu ma'lumotlarni markaziy tushuncha atrofida shoxlanib joylashtirish orqali tasvirlash usuli bo'lib, u o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, bilimlarni tez tushunish, eslab qolish va tahlil qilishga xizmat qiladi. Mental xarita (yoki mind map) – bu g'oyalar, tushunchalar, ma'lumotlar orasidagi bog'liqlikni vizual tarzda tasvirlash usuli bo'lib, tafakkurni tartibga solish, rejalashtirish va o'rganishni osonlashtiradi. Bugungi kunda ta'limda, biznesda, rejalashtirish va ijodiy fikrlashda mental xaritalar keng qo'llaniladi va butun dunyoda samarali ta'lim texnologiyasi sifatida tan olingan. Mental xaritalarni barcha fanlarga oid bilimlarni yanada chuqurroq o'rganish uchun qo'llash orqali fan mazmunini mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Biz tadqiqot tahlillari natijasida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda mental xaritalar (fikr xaritalari) tabiiy fanlar kesimida muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari hamda ijodiy faoliligini oshirishdagi imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Xususan:

1. **Geografiya fanida**, materiklar va okeanlar geografiyasini o'rganishda, davlatlar geografiyasi, iqlim mintaqalari, tabiiy jarayonlar (vulqon, zilzila, suv aylanishi) tahlil qilish va hokoza.
2. **Biologiya fanida**, inson a'zolari va tizimlari, o'simlik va hayvonlar tasnifi, ekologik zanjirlar, genetika asoslari va hokoza.
3. **Fizika fanida**, mexanika, kinematika, energiya va ish, molekulyar fizika, termodinamika, elektr va magnit hodisalar, optika, atom va yadro fizikasi va hokoza.

4. **Kimyo fanida**, atom tuzilish, kimyoviy bo'g'lanishlar, kimyoviy reaksiyalar, organik moddalar, noorganik moddalar va hokozo.

Mental xarita - tafakkur xaritasi - bu o'quvchilarning mavhum fikrlari va tafakkurini vizual tasvirlaydigan o'rganish vositasi bo'lib, o'quvchining kreativ fikrlashlarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, bunday xarita o'quvchilarga o'quv jarayonida shakllangan ma'lumotlar va g'oyalarni samarali tartibga solishga yordam beradi. Shu sababli, o'quvchilar ishlab chiqilgan yangi tushunchalarni osongina o'zlashtiradilar va ularda yangi tushunchalar, yangi bilimlar shakllanadi. Sakkiz xil fikrlash xaritalari mavjud - pufakchali, qo'sh pufakchali, daraxtli, ko'priqli, oqimli, ko'p oqimli, qavslil va aylanalil xaritalar. Ularning har biri o'z maqsadiga ega va foydalanuvchilardan chuqur fikrlash va tahliliy ko'nikmalarni talab qiladi [4].

Mental xaritalar - bu ma'lum bir mavzu yoki tushunchani izohlash uchun foydalaniladigan vosita bo'lib, unda markaziy g'oya yoki kontseptlar atrofida bog'lanishlar va tafsilotlar ko'rsatiladi. Bunday xaritalarda o'zaro bog'liq fikrlar, ma'lumotlar va tushunchalar shaxmat taxtasi kabi tarmoqlarda joylashtiriladi.

Mental xaritalar o'quvchilarga murakkab ma'lumotlarni tizimli ravishda tashkil qilish, o'rganganlarini yodda saqlash va yangi tushunchalar bilan bog'lash imkonini beradi. Geografiya fanida mental xaritalar, masalan, mintaqaviy tahlillar, tabiiy resurslar, iqtisodiy o'zgarishlar, iqlim zonalari va boshqa mavzularni tushinishda muhim rol o'ynaydi. Bu texnologiya o'quvchilarga nazariy materialni osonroq va samaraliroq tarzda o'rganish imkoniyatini yaratadi. Innovatsion texnologiyalar, xususan, mental xaritalar bugungi kunda geografiya ta'limida ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda [5]. Ular o'quvchilarga nafaqat mavzularni o'zaro bog'lashni, balki chuqurroq tahlil qilish va yangi bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi. Geografiya kabi keng miqyosdagi fanlar, ko'plab tushunchalar va bog'lanishlarga ega bo'lib, o'quvchilarga ularni yodda saqlash va tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Mental xaritalar orqali mavzularni vizual ko'rinishda taqdim etish, o'quvchilarga ma'lumotlarni tizimli ravishda o'rganishga yordam beradi. Masalan, iqlim zonalari yoki tabiiy resurslar haqidagi ma'lumotlar turli ranglar va belgilarda ko'rsatilib mumkin, bu esa o'quvchilarga materialni yaxshiroq eslab qolish imkonini beradi.

Geografiya fanida bir mavzu ko'p bosqichli va murakkab bo'lishi mumkin. Mental xaritalarda bir nechta bosqichlar yaratish, o'quvchilarga har bir bosqichni alohida o'rganish imkonini beradi. Misol uchun, iqlim o'zgarishi haqida xarita yaratishda birinchi bosqichda iqlim turlari, ikkinchi bosqichda ularning ta'siri va so'nggi bosqichda global o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berilishi mumkin. Shu bilan birga, mental xaritalar yaratish jarayonini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish orqali o'quvchilar turli ijtimoiy va ilmiy bilimlarni birlashtiradilar. Masalan, geografiya va iqtisodiyot fanlarini birlashtirib, o'quvchilar ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni tahlil qiladilar va o'zaro bog'lanishlarini xaritada aks ettiradilar. Interaktiv doskalar va virtual xaritalar geografiya darslarida mental xaritalar bilan ishlashni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Virtual xaritalar yordamida o'quvchilar geografik ob'yektlar, hududiy farqlar va tabiiy resurslar haqida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Ushbu vositalar o'quvchilarga geografik axborotni jonli va interaktiv tarzda o'rganish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mental xaritalar bilan ishlashda geografiya fanida quyidagi metodik yondoshuvlar tavsiya etiladi:

1. **Tizimli tahlil** mental xaritalar yordamida o'quvchilar bir vaqtning o'zida bir nechta omillarni tahlil qilishlari mumkin. Geografiyada bu, masalan, mintaqaviy tahlil yoki iqtisodiy o'sishning tabiiy omillar bilan aloqasi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. O'quvchilar, xarita asosida ma'lumotlar bilan ishlash orqali har bir tushunchani chuqurroq o'rganadilar.
2. **Kollaborativ o'rganish** o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, ularni birgalikda mental xaritalar yaratishga undash, jamoaviy o'rganish jarayonini faollashtiradi. Bu o'quvchilarga o'zaro fikr almashish, bilimlarni baham ko'rish va bir-birlaridan o'rganish imkonini beradi.
3. **Masalalar va loyihalar asosida o'rganish** geografik masalalar va loyihalar asosida mental xaritalar yaratish, o'quvchilarga o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Bu usul o'quvchilarda tanqidiy tafakkur va ijodiy yondoshuvni rivojlantiradi.
4. **Interaktiv va vizual vositalar asosida o'rganish** mental xaritalar yaratishda vizual vositalarni kengaytirish, o'quvchilarning tasavvurlarini rivojlantiradi. Rasm, diagramma, animatsiya va video materiallar mental xaritalarni boyitadi va tushunishni osonlashtiradi.
5. **Hududiy va mavzular asosida ajratilgan mental xaritalar** geografiya fani turli mavzularni (tabiat, iqtisodiyot, siyosat) o'z ichiga oladi. Har bir mavzu bo'yicha mental xaritalar yaratish, o'quvchilarga ma'lum bir soha haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish imkoniyatini beradi.
6. **Mental xaritalarni baholash va takomillashtirish** mental xaritalar bilan ishlashning samaradorligini baholash uchun o'quvchilarning fikrlarini, yaratilgan xaritalarning to'liqligi va aniq ma'lumotlarni qamrab olishini tahlil qilish kerak. Kreativlik va mustaqil fikr yaratish mental xaritalar o'quvchilarni ijodiy yondoshuvni qo'llashga undaydi. Ular mavzuni o'zlarini qiziqtirgan tarzda tuzishlari mumkin, bu esa ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Geografiya fanida bu, masalan, turli mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlarini

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur mental xarita yordamida o'quvchi O'zbekiston Respublikasining tabiiy geografik xususiyatlari - geografik koordinatalari, maydoni, chegara uzunligi, qo'shni davlatlari, tog'lar va tekisliklar, eng baland va eng past nuqtasi, quyoshli soatlar miqdori ("Serquyosh o'lka"), yog'inlar, daryolari, suv omborlari, aholisi, shahar va qishloq aholisi, foydali qazilmalari, tabiiy geografik o'lkalari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bu xarita katta mavzuni qisqartirib tushuntirishda, ko'p ma'lumotlarni birdaniga o'zlashtirishga va shu bilan birga ranglar, rasmlar, chizmalardan foydalanilganligi sababli ma'lumotlarni xotirada saqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Oddiy ro'yxatdan farqli ravishda, mental xarita muammoni bir qarashda to'liq ko'rish imkonini beradi. Bu esa strategik va ijodiy qaror qabul qilishni osonlashtiradi, erkin fikrlashni rag'batlantiradi. Ranglar, chizmalar va kalit so'zlar ishlatilgani uchun ma'lumot yaxshiroq esda qoladi. Boshqacha qilib aytganda, mental xarita tuzish - bu har bir o'quvchining shaxsiy kreativligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoimova Sh. " Fikrlar xaritasi: U nima va u bilan qanday ishlanadi?". Kun.uz.11.11.2018.
2. "Бьюзен Тони биография, открытия, и работы" <https://ru.ruwiki.ru/wiki>.
3. Mirzayeva N.A. "Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda intellekt xaritalarning ahamiyati". Zamonaviy ta'lim / Современное образование -2020, 6 (91)
4. "Fikrlash xaritalaridan foydalanish orqali fikrlash yondashuvlaringizni yaxshilang: ularni nima va qanday qilish kerak?" Jade Morales – 2022 yil, 14 mart.
5. Turg'unboyeva M.U., Sarikulov M. O. "Geografiya ta'limida innovatsion texnologiyalardan mental xaritalari bilan ishlash texnikasini takomillashtirish" "Ekonomika i sotsium" №2 (129) 2025 www.iupr.ru
6. Шенк Ф.Б. "Ментальные карты: конструирование географического пространства в Европе" // Политическая наука. 2001. №4. С. 4–17.
7. Бьюзен Т., Бьюзен Б. "Супермышление". Мн.: Попурри, 2003.С. 320.
8. Глазков К. "Ментальные карты: ограничения метода и образ "чужого" в малом городе" // Laboratorium. 2015. Т. 7. №3. С. 106–117.
9. Глазков К. "Ментальные карты: способы анализа, погрешность и пространственная метрика" // Социология власти. 2013. №3. С. 39–56.
10. Kodirov A., Raxmatov Sh. "Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi". "Pedagogs" international research journal. 2023/6/12. С. 157-161.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.